

Islomiy banklardagi investitsiyaviy omonatlarning fuqarolik-huquqiy tabiati va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish muammolari

Jaxongir Zunnurxon o'g'li SOBITXONOV

mustaqil izlanuvchi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

sobitxonovjahongir@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston qonunchiligidagi islomiy investitsiyaviy omonatning fuqarolik-huquqiy tabiati, asosiy summani qaytarish va zarar tavakkalchiligi, bankning aybli xatti-harakatlari uchun javobgarligi, omonatlarni kafolatlash tizimining tatbiq etilmasligi hamda bank tugatilganda investorning huquqiy holati tahlil qilingan. Ular O'zbekiston qonunchiligi Malayziya tajribasi, AAOIFI va IFSB standartlari, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi davlatlar qonunchiligi bilan taqqoslangan. Shu asosda investitsiyaviy mablag'larning mustaqil shartnomaviy-huquqiy toifasi, tavakkalchiliklarni oshkor etish va investitsiyaviy aktivlarni alohida qilishga yondashuvlar asoslangan.

Tayanch so'zlar: islomiy bank, investitsiyaviy omonat, bank omonati, mudaraba, investitsiya tavakkalchiligi, omonatchi huquqlarini himoya qilish.

Гражданско-правовая природа инвестиционных вкладов в исламских банках и проблемы защиты интересов вкладчиков

Жахонгир Зуннурхон угли СОБИТХОНОВ

независимый исследователь

Ташкентский государственный юридический университет

Ташкент, Узбекистан

sobitxonovjahongir@gmail.com

Аннотация

В статье исследуются гражданско-правовая природа исламского инвестиционного вклада в законодательстве Узбекистана, вопросы возврата основной суммы и распределения риска убытков, ответственность банка за виновные действия, неприменение системы гарантирования вкладов, а также правовое положение инвестора при ликвидации банка. Законодательство Узбекистана сопоставляется с опытом Малайзии, стандартами AAOIFI и IFSB, а также законодательством Казахстана и Кыргызстана. На этой основе обосновываются подходы к самостоятельной договорно-правовой квалификации инвестиционного вклада, раскрытию рисков и обособлению инвестиционных активов.

Ключевые слова: исламский банк, инвестиционный вклад, банковский вклад, мудараба, инвестиционный риск, защита прав вкладчиков.

O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslari shakllanishi bank amaliyotiga yangi moliyaviy mahsulotlar bilan birga yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni ham olib kirmoqda. Ayniqsa, investitsiyaviy omonat foyda va zarar natijalariga bog‘langanligi sababli klassik bank omonatidan farq qiladi. Shu jihatdan uning huquqiy tabiati, taraflar o‘rtasida tavakkalchilikning taqsimlanishi, bankning javobgarligi hamda omonatchi manfaatlarini himoya qilish masalalarini aniqlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 2026-yil 27-mart O‘RQ-1126-son Qonuni (O‘RQ-1126-son Qonun) bilan islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi [4]. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5¹-moddasida foydani taqsimlash hamda vakillik asosida pul mablag‘larini investitsiyaviy omonatlarga jalb qilish islomiy moliya operatsiyalari qatoriga kiritilgan. Shu Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, bunday omonatlar bo‘yicha islomiy moliya standartlariga muvofiq asosiy summani to‘liq qaytarish majburiyati nazarda tutilmasligi mumkin [1]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2026-yil 17-iyuldagi qarori bilan islomiy bank litsenziyasini olishga doir tashkiliy va muvofiqlik talablari ham aniqlashtirildi [13]. Shu tariqa, asosiy masala investitsiyaviy omonatning xususiy-huquqiy mazmuni va unga tatbiq etiladigan fuqarolik-huquqiy rejimni belgilashga ko‘chmoqda.

Fuqarolik kodeksining 759-moddasi bank omonati bo‘yicha omonat summasini qaytarish majburiyatini belgilaydi va qonunda nazarda tutilgan istisnolarni tan oladi [5]. Investitsiyaviy omonatda esa “omonat”ga xos qaytarish talabi bilan “investitsiya”ga xos tavakkalchilik bir munosabatda birlashadi. Shu sababli tadqiqotning asosiy savoli investitsiyaviy omonatning qaysi fuqarolik-huquqiy konstruksiyaga mansubligi hamda unga xos tavakkalchilik bankning javobgarligi va omonatchi manfaatlarini himoya qilishga qanday ta’sir qilishini aniqlashdan iborat.

Amaldagi qonunchilik investitsiyaviy omonatning huquqiy rejimini o‘zaro bog‘liq bir nechta normalar orqali belgilaydi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5¹-moddasi investitsiyaviy omonatni foydani taqsimlash hamda vakillik asosidagi mexanizmlar bilan bog‘laydi. 6-modda esa bunday omonat bo‘yicha asosiy summani to‘liq qaytarish majburiyatidan istisno bo‘lishi

mumkinligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, Islomiy moliya kengashi shartnomalar va ichki hujjatlarni ko‘rib chiqadi, islomiy bank faoliyati esa tashqi islomiy auditdan o‘tkaziladi [1].

Fuqarolik kodeksining 759-moddasi klassik bank omonatida qaytarish majburiyatini asosiy qoida sifatida saqlaydi. O‘RQ-1126-son Qonun bilan joriy etilgan maxsus norma investitsiyaviy omonat uchun boshqa tavakkalchilik rejimiga yo‘l ochadi. Investitsiyaviy omonatning kafolatlash tizimidan chiqarilgani ham qonunda bevosita belgilangan [2], [4], [5].

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5¹-moddasida nazarda tutilgan foydani taqsimlash modeli funksional jihatdan mudarabaga yaqin: mijoz kapital kiritadi, bank uni boshqaradi va foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Vakillik modeli esa vakala bil-istismar, ya’ni investitsiya qilish uchun vakillik munosabatiga yaqin bo‘lib, bank mijoz bergan vakolat doirasida investitsiya vakili sifatida harakat qiladi [1].

Investitsiyaviy omonatni oddiy bank omonatining bir turi sifatida talqin qilish tavakkalchilik taqsimotini to‘liq aks ettirmaydi. Klassik omonatda bank qarzdor sifatida omonat summasini qaytarishi shart. Investitsiyaviy omonatda esa asosiy summani to‘liq qaytarish majburiyati nazarda tutilmasligi mumkin [1]. Shu bilan birga, uni sof vakillik yoki ishonchli boshqarish shartnomasiga tenglashtirish ham yetarli emas, chunki bu mahsulot litsenziyalangan bank tomonidan maxsus institutsional talablar doirasida taklif etiladi.

Shu sababli investitsiyaviy omonatni foydani taqsimlash yoki investitsiya vakilligi elementlarini birlashtiruvchi o‘ziga xos mustaqil bank-investitsiya shartnomasi (sui generis) sifatida kvalifikatsiya qilish asosli. Fuqarolik kodeksining bank omonatiga oid qoidalari unga investitsiyaviy tavakkalchilikning maxsus rejimiga zid bo‘lmagan qismida qo‘llanishi lozim. Bu pozitsiya Fuqarolik kodeksining 759-moddasi bilan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5¹ va 6-moddalarini tizimli talqin qilishga asoslanadi [1], [5].

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida asosiy summani to‘liq qaytarish majburiyati mavjud bo‘lmasligi bankni har qanday zarar uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi [1]. Odatiy investitsiya zarari bilan bankning

xatti-harakati oqibatida yuzaga kelgan zarar farqlanishi zarur. Bozor yoki xo‘jalik omillari ta’sirida, tasdiqlangan investitsiya siyosati doirasida yuzaga kelgan zarar investor tavakkalchiligining tarkibiga kirishi mumkin. Bankning ehtiyotsizligi, investitsiya vakolatidan chetga chiqishi, shartnoma shartlarini buzishi, manfaatlar to‘qnashuvini yashirishi yoki majburiy islomiy moliya standartlariga rioya qilmasligi bilan sababiy bog‘langan zarar esa investor zimmasiga yuklanmasligi kerak. Qirg‘iziston va Qozog‘iston qonunchiligida ham ushbu ikki turdagi zarar ajratiladi [15], [16].

Islomiy moliya standartlariga muvofiqlik ushbu munosabatning alohida elementidir. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5¹-moddasi islomiy moliya operatsiyalarining standartlarga muvofiq bo‘lishini talab qiladi, 35¹-modda Islomiy moliya kengashiga shartnomalar va ichki hujjatlarni ko‘rib chiqish vakolatini beradi, 74-modda esa tashqi islomiy audit o‘tkazilishini nazarda tutadi [1]. Demak, standartlarga rioya qilish bank uchun qonunchilikdan kelib chiqadigan majburiyat hisoblanadi.

Biroq islomiy moliya standartiga har qanday nomuvofiqlik shartnomani avtomatik ravishda haqiqiy emas deb topishga olib kelmasligi kerak. Fuqarolik-huquqiy oqibat buzilishning mazmuni, bankning aybi, real zarar hamda bank harakati bilan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishga qarab belgilanadi. Markaziy bank tomonidan qo‘llanadigan nazorat chorasi bilan mijozning zararni undirish, shartnomani bekor qilish yoki boshqa fuqarolik-huquqiy himoya vositasidan foydalanish talabi bir xil huquqiy oqibat emas. Amaldagi qonunchilik islomiy moliya standartlariga rioya qilmaslikning barcha fuqarolik-huquqiy oqibatlarini alohida tartibga solmaydi.

O‘RQ-1126-son Qonun bilan kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 25-moddasida islomiy bank faoliyatidagi investitsiyaviy omonatlar kafolatlash obyekti hisoblanmasligi belgilangan [2]. Shunday ekan, investitsiyaviy omonatchi kafolatlangan oddiy bank omonati egasi bilan bir xil huquqiy himoyaga ega emas.

Bunday yondashuv foyda va zararni taqsimlash modelining iqtisodiy-huquqiy tabiatiga mos keladi. Kafolatning yo‘qligi bankning axborot berish majburiyatini

kuchaytiradi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 65 va 66-moddalari mijozga xizmat shartlari bilan tanishish imkonini berish hamda shartnoma tuzilishidan oldin bank xizmati haqida to‘liq axborot taqdim etishni talab qiladi [1].

Investitsiyaviy omonat bo‘yicha mijoz asosiy summaning kafolatlanishi yoki kafolatlanmasligi, kafolatlash tizimining tatbiq etilmasligi, investitsiya siyosati va aktivlar doirasi, foyda va zararni hisoblash usuli, bankning haqi yoki foydadagi ulushi, muddatidan oldin chiqish oqibatlari, manfaatlar to‘qnashuvi hamda investitsiya aktivlarining huquqiy maqomi haqida oldindan xabardor qilinishi kerak. “Omonat” atamasi oddiy iste’molchida asosiy summa albatta qaytariladi degan tasavvur uyg‘otishi mumkin. Shu sabab tavakkalchilik haqidagi ma’lumotlarni bitta standart axborot varaqasida jamlash va mijozning u bilan tanishganini alohida tasdiqlash maqsadga muvofiq.

Bank tugatilganda investorning holati yanada murakkablashadi. “Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida”gi Qonunning 64-moddasida kafolatlangan omonatlarga oid talablar uchun maxsus navbatlar belgilangan, boshqa ta’minlanmagan talablar esa beshinchi navbatda qanoatlantiriladi [3]. Investitsiyaviy omonat kafolatlash obyekti bo‘lmagani sababli unga kafolatlangan omonatlar uchun nazarda tutilgan navbatlar avtomatik tatbiq etilmaydi. Agar investitsiyaviy omonatchining huquqi faqat bankka nisbatan pul talabi sifatida baholansa, bunday talab boshqa ta’minlanmagan talablar qatorida ko‘rilishi mumkin.

Shu Qonunning 67-moddasi ishonchli boshqaruvdagi hamda qonunchilikka muvofiq bankning mulki bo‘lmagan mol-mulkni tugatish massasidan chiqaradi [3]. Biroq “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning investitsiyaviy omonatga oid normalari ushbu mablag‘lar hisobidan sotib olingan aktivlarni bank mulkidan ajralgan mustaqil mulkiy massa deb bevosita belgilamaydi [1].

Natijada investor ikki turdagi tavakkalchilikka duch kelishi mumkin: investitsiya obyekti qiymatining kamayishi hamda bankning umumiy to‘lovga qobiliyatsizligi bilan bog‘liq tavakkalchilik. Birinchi holat investitsiyaviy omonat tabiatidan kelib chiqadi. Ikkinchi tavakkalchilikni ham investorga avtomatik yuklash uchun aniq huquqiy asos zarur. Shu sababli investitsiya aktivlarini alohida hisobga

olishning o'zi yetarli emas; ularning mulkiy maqomi va bank tugatilgandagi huquqiy rejimi qonunchilikda aniq belgilanishi kerak.

Malayziya tajribasining O'zbekiston uchun foydali jihatida depozit bilan investitsiya hisobvarag'ini huquqiy himoya rejimi bo'yicha ajratishidir. 2013-yildagi Islomiy moliyaviy xizmatlar to'g'risidagi qonun (Islamic Financial Services Act 2013) investitsiya hisobvarag'ini oddiy depozit majburiyatidan farqlanadigan alohida kategoriya sifatida tartibga soladi. Malayziya Markaziy banki (Bank Negara Malaysia) investitsiya hisobvaraqlariga asoslangan Investitsiya hisobvaraqlari platformasini (Investment Account Platform) qo'llab-quvvatlaydi. Malayziya depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi (Perbadanan Insurans Deposit Malaysia) ma'lumotlariga ko'ra, investitsiya hisobvaraqlari va investitsiya mahsulotlari depozitlarni sug'urtalash tizimiga kirmaydi [7], [8], [14].

Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) tomonidan qabul qilingan 45-son Moliyaviy hisob standarti (FAS 45) investitsiya hisobvaraqlarini qamrab oluvchi ayrim investitsiya vositalarini tegishli mezonlar mavjud bo'lganda kvazi-kapital sifatida alohida hisobga olishni nazarda tutadi [6]. Bu yondashuv investitsiya mablag'larini oddiy depozit majburiyatlari bilan bir xil iqtisodiy va hisob kategoriyasida ko'rmaslik zarurligini ko'rsatadi.

Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (Islamic Financial Services Board)ning IFSB-3 standarti investitsiya hisobvaraqlari egalarining huquqlarini korporativ boshqaruvning alohida yo'nalishi sifatida ko'radi. IFSB-16 esa investitsiya hisobvaraqlari egalari manfaatlarini hisobga olish hamda tijorat tavakkalchiligining bank zimmasiga o'tishi bilan bog'liq masalalarni nazorat jarayonining alohida yo'nalishi sifatida belgilaydi [9], [10]. Bu yondashuv investitsiyaviy omonatchining axborot assimetriyasidan alohida himoya qilinishi zarurligini ko'rsatadi.

Qirg'iziston qonunchiligida mudaraba asosidagi investitsiya hisobvarag'i hamda vakala bil-istismar (wakala bil-istithmar – investitsiya qilish uchun vakillik) asosidagi hisobvaraq alohida tartibga solinadi. Mudarabada bankning aybi bilan bog'liq bo'lmagan zarar omonatchi kiritgan mablag' doirasida uning zimmasida qoladi. Vakala bil-istismar munosabatida esa bankning suiiste'moli, ehtiyotsizligi

yoki shartnoma shartlarini buzishi natijasida yuzaga kelgan zarar bank zimmasiga yuklanadi. Investorning axborot olish va investitsiya natijalarini kuzatib borish huquqi ham nazarda tutilgan [15].

Qozog‘iston Respublikasining 2026-yil 16-yanvardagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investitsiyaviy depozit nominal summasi qaytarilishi kafolatlanmaydigan va daromadi investitsiya natijasiga bog‘liq munosabat sifatida tartibga solinadi. Shartnomada bankning boshqaruv haqi, mablag‘ni qaytarish tartibi va zarar tavakkalchiligi ko‘rsatilishi talab qilinadi. Aktiv qiymatining kamayishi bankning aybi bilan bog‘liq bo‘lsa, zarar bank tomonidan qoplanadi. Investitsiya mablag‘lari hisobidan olinadigan aktivlarga oid mulkiy munosabatlar ham alohida tartibga solingan [16].

Qozog‘iston tajribasida nominal summani kafolatlamaslik bankning javobgarlikdan ozod bo‘lishi bilan tenglashtirilmaydi. Investitsiya natijasidan kelib chiqqan zarar investor tavakkalchiligi, bankning aybli boshqaruvi oqibatidagi zarar esa bank javobgarligi sifatida baholanadi. O‘zbekiston qonunchiligida ham ushbu ikki holatni aniq ajratish maqsadga muvofiq [15], [16].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 759-moddasida investitsiyaviy omonatga bank omonati haqidagi umumiy qoidalarni qo‘llash chegarasini aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Umumiy depozit qoidalari investitsiyaviy omonatning foyda va zarar tavakkalchiligi xususiyatiga zid bo‘lmagan qismida qo‘llanishi, asosiy summani qaytarish, daromad va zararni taqsimlash esa maxsus qonun, islomiy moliya standartlari hamda shartnoma shartlari asosida belgilanishi lozim [5].

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida investor zimmasidagi odatiy investitsiya tavakkalchiligi bilan bankning fuqarolik-huquqiy javobgarligi o‘rtasidagi chegarani aniq belgilash zarur. Bankning aybi yoki ehtiyotsizligi, investitsiya vakolatidan chetga chiqishi, shartnoma yoxud majburiy islomiy moliya standartlarini buzishi oqibatida yuzaga kelgan zarar investor zimmasiga yuklanmasligi kerak [1]. Qirg‘iziston va Qozog‘iston tajribasi bunday farqlash mumkinligini ko‘rsatadi [15], [16].

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 66-moddasidagi axborot berish majburiyatini investitsiyaviy omonatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Shartnoma tuzilishidan oldin mijozga asosiy summaning kafolatlanishi yoki kafolatlanmasligi, kafolatlash tizimining tatbiq etilmasligi, investitsiya siyosati, foyda va zararni hisoblash tartibi, bankning haqi, muddatidan oldin chiqish shartlari, manfaatlar to‘qnashuvi va investitsiya aktivlarining huquqiy rejimi bitta standart axborot varaqasida ochib berilishi lozim [8]. Mijoz asosiy summa kamayishi mumkinligini va investitsiyaviy omonat kafolatlash obyekti emasligini alohida tasdiqlashi maqsadga muvofiq [2].

“Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida”gi Qonunning 67-moddasida investitsiyaviy omonat mablag‘lari hisobidan shakllantirilgan aktivlarning tugatish massasidagi maqomini aniqlashtirish zarur [3]. Shu bilan birga, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda investitsiya aktivlarining mulkiy maqomi, bank va investorning tegishli huquqlari hamda ularni alohida hisobga olish qoidalari belgilanishi lozim. Qozog‘iston tajribasi ushbu masalalarni o‘zaro bog‘liq holda tartibga solish mumkinligini ko‘rsatadi [16].

Investitsiyaviy omonatga oid munosabatlarni batafsil tartibga soluvchi Markaziy bankning maxsus normativ hujjatini ishlab chiqish ham maqsadga muvofiq. Unda shartnomaning majburiy bandlari, investitsiya mandati, aktivlarni baholash, foyda va zararni hisoblash, bankning haqi, davriy hisobot, manfaatlar to‘qnashuvi, aloqador shaxslar bilan bitimlar, investitsiya aktivlarini alohida hisobga olish, islomiy moliya standartlariga nomuvofiqlik va mijozni xabardor qilish tartibi qamrab olinishi mumkin [13].

Shartnomada esa investitsiya mandati va ruxsat etilgan aktivlar, foydani taqsimlash formulasi, bankning haqi, aktivlarni baholash davri va usuli, investitsiya zarari bilan bank aybiga bog‘liq zararni ajratish mezonlari, manfaatlar to‘qnashuvi, muddatidan oldin mablag‘ni qaytarish va hisobot davriyligi aniq ko‘rsatilishi zarur. Bank litsenziyasi bekor qilinganda yoki tugatish jarayoni boshlanganda investitsiya aktivlari bilan qanday muomala qilinishi ham oldindan belgilanishi kerak. Qirg‘izistonning investorni axborot bilan ta‘minlash va investitsiya natijalarini

kuzatib borishga oid qoidalari bunday shartnomaviy standart uchun foydali qiyosiy asos bo'la oladi [15].

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston qonunchiligidagi investitsiyaviy omonatni klassik bank omonatining oddiy turi sifatida emas, foydani taqsimlash yoki investitsiya vakilligi mexanizmiga ega o'ziga xos mustaqil bank-investitsiya shartnomasi (sui generis) sifatida kvalifikatsiya qilish asosli. Fuqarolik kodeksining bank omonatiga oid qoidalari unga maxsus investitsiyaviy tavakkalchilik rejimiga zid bo'lmagan qismida qo'llanishi lozim.

Ikkinchidan, asosiy summaning kafolatlanmasligi bankning javobgarligi mavjud emasligini anglatmaydi. Investor bankning aybi bilan bog'liq bo'lmagan odatiy investitsiya zararini qabul qilishi mumkin. Bankning ehtiyotsizligi, vakolatdan chetga chiqishi, shartnomani yoki majburiy islomiy moliya standartlarini buzishi bilan sababiy bog'langan zarar esa bank zimmasida qolishi kerak.

Uchinchidan, investitsiyaviy omonatlarning davlat kafolatlash tizimiga kirmasligi ularning foyda va zarar tavakkalchiligi bilan bog'liq tabiatiga mos keladi. Biroq "omonat" atamasi mijozda mablag' to'liq qaytariladi degan tasavvur uyg'otishi mumkin. Shu sababli bank shartnoma tuzishdan oldin mijozga asosiy summa kafolatlanmasligi, zarar ko'rish ehtimoli va ushbu omonat davlat kafolatiga kirmasligi haqida aniq va tushunarli ma'lumot berishi lozim. Mijoz bu shartlarni tushunganini alohida tasdiqlashi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, amaldagi qonunchilik investitsiyaviy omonatlar hisobidan shakllangan aktivlarning bank tugatilgandagi maqomini yetarlicha aniq belgilamaydi. Natijada investor investitsiya faoliyatidan kelib chiqadigan zarar bilan birga bankning boshqa operatsiyalari sabab yuzaga kelgan moliyaviy muammolar ta'siriga ham tushib qolishi mumkin. Shu sababli investitsiyaviy omonatlar hisobidan shakllangan va alohida hisobga olingan aktivlarni bankning umumiy tugatish massasidan ajratish shartlari hamda tartibini qonunchilikda aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, islomiy moliya standartlarini buzish bank uchun bank nazorati sohasidagi alohida qoidabuzarlik bo'lishi mumkin. Biroq bu holatning o'zi mijozga avtomatik ravishda zarar qoplab berilishini anglatmaydi. Fuqarolik-huquqiy

javobgarlik bankning aybi, yetkazilgan zarar va bankning xatti-harakati bilan zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligiga qarab belgilanadi. Bunday yondashuv islomiy moliya standartlariga rioya etish talabini saqlagan holda, har qanday buzilish shartnomaning avtomatik ravishda haqiqiy emasligiga olib kelishining oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son. URL: <https://lex.uz/acts/-4581969>
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2025-yil 18-fevral, O'RQ-1031-son. URL: <https://lex.uz/mact/-7389404>
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi Qonuni, 2025-yil 23-iyun, O'RQ-1070-son. URL: <https://lex.uz/acts/-7592967?ONDATE=25.09.2025+00>
4. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-8099403>
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Ikkinchi qism. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-180552?ONDATE=29.06.2026>
6. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). FAS 45 "Quasi-Equity (Including Investment Accounts)". English version issued in 2023.
7. Bank Negara Malaysia. Financing for Small and Medium Enterprises (SMEs): Investment Account Platform (IAP). Official materials. URL: <https://corpwb01.bnm.gov.my/sme-financing>
8. Islamic Financial Services Act 2013 (Act 759). Laws of Malaysia. Attorney General's Chambers of Malaysia. URL:

https://lom.agc.gov.my/ilims/upload/portal/akta/outputaktap/20130322_759_BI_Combined.pdf

9. Islamic Financial Services Board (IFSB). IFSB-3: Guiding Principles on Corporate Governance for Institutions Offering Only Islamic Financial Services (Excluding Islamic Insurance (Takaful) Institutions and Islamic Mutual Funds). Kuala Lumpur: IFSB, 2006. IFSB official materials. URL: <https://www.ifsb.org/events/list/page/16/?tribe-bar-date=2009-03-07>
10. Islamic Financial Services Board (IFSB). IFSB-16: Revised Guidance on Key Elements in the Supervisory Review Process of Institutions Offering Islamic Financial Services. Kuala Lumpur: IFSB, 2014. IFSB official materials. URL: <https://www.ifsb.org/events/month/2020-12/>
11. Laldin M.A., Furqani H. Islamic Financial Services Act (IFSA) 2013 and the Shariah-compliance requirement of the Islamic finance industry in Malaysia // ISRA International Journal of Islamic Finance. 2018. Vol. 10, No. 1. P. 94–101. DOI: 10.1108/IJIF-12-2017-0052.
12. Magalhães R., Al-Saad S. Corporate governance in Islamic financial institutions: the issues surrounding unrestricted investment account holders // Corporate Governance. 2013. Vol. 13, No. 1. P. 39–57. DOI: 10.1108/14720701311302404.
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi nizom, davlat ro‘yxati raqami 3252 (2020-yil 30-iyun), URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4909887?ONDATE=20.07.2026>
14. Perbadanan Insurans Deposit Malaysia (PIDM). Deposit Insurance System: protected and non-protected financial products. PIDM official materials. URL: <https://www.pidm.gov.my/general/how-we-protect-you/dis>
15. Инструкция по работе с банковскими счетами, счетами по банковским вкладам (депозитам), открытыми в соответствии с исламскими принципами банковского дела и финансирования. Киргизский национальный банк. 13.06.2019 URL: <https://www.nbkr.kg/contout.jsp?item=103&lang=RUS&material=131385>

16. Qozog‘iston Respublikasining “О банках и банковской деятельности в Республике Казахстан” Закон Республики Казакстан 2026 г. 16 января. № 258-VIII ЗРК. URL: <https://www.adilet.zan.kz/rus/docs/Z2600000258>